

1. Yer yuzi relyefini qaysi fan o'rganadi?

- A) Geomorfologiya
- B) Hidrologiya
- C) Geokriologiya
- D) Glyatsiologiya

2. Parallellarga Bosh meridian yoniga yozib qo'yilgan darajalar yordamida nimalar aniqlanadi?

- A) geografik kenglik
- B) daraja to'ri
- C) geografik uzunlik
- D) g'arbiy uzunlik

3. Qaysi erada hozirgi kekxa tog'lar paydo bo'lgan?

- A) mezozoy
- B) paleozoy
- C) arxey
- D) kaynozoy

4. **Matni o'qing.**

"Fasliy nam doimiy yashil o'rmonlar materikning shimoli-sharqiy sohillarini egallaydi. Daraxtlardan palma, lavr, daraxtsimon paprotniklar, evkaliptlar ko'p uchraydi".

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Yevrosiyo
- B) Janubiy Amerika
- C) Avstraliya
- D) Shimoliy Amerika

5. Qaysi okean tubi mustaqil litosfera plitasi tariqasida ajratiladi?

- A) Atlantika
- B) Tinch
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

6. **Matni o'qing.**

Ushbu okeanda minglab kilometr masofaga cho'zilib yotgan eng chuqur cho'kmalar bor. Dunyo okeanidagi chuqurligi 5 km dan ortiq bo'lgan 35 ta botiqdan 25 tasi, chuqurligi 10 km dan ortiq bo'lgan 5 ta botiqning barchasi ushbu okeanda joylashgan. **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Tinch
- B) Atlantika
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

7. Yevrosiyoning o'rmon-tundra zonasida qanday tuproqlar tarqalgan?

- A) chimli podzol
- B) tundra-gleyli
- C) podzolli-gleyli
- D) torfli-gleyli

8. **Matni o'qing.**

"XVIII — XIX asrlarda tashkil etilgan sayohat va ilmiy ekspeditsiyalar paytida materikni ilmiy jihatdan o'rganish ishlari olib borildi. Olimlar materikning turli qismlarini atroflicha o'rgandilar. XX asrdagi olib borilgan ilmiy ishlar avvalgi tasavvurlarni kengaytirdi va yangi ma'lumotlar bilan boyitdi". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Janubiy Amerika
- B) Avstraliya
- C) Antarktida
- D) Yevrosiyo

9. Pireney yarimorolida joylashgan davlatlarni toping.

1) Fransiya; 2) Portugaliya; 3) Albaniya; 4) Gretsiya; 5) Ispaniya; 6) Sloveniya.

- A) 4, 5
- B) 2, 5
- C) 3, 6
- D) 1, 4

10. Avstraliya materigiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

A) Materikning savannalar tabiat zonasida kichik bug'ular — mazamlar, yovvoyi cho'chqalar — pekarlar, zirhlilar — shox moddadan iborat qalqoni bo'lgan sutemizuvchi hayvonlar, chumolixo'r, kemiruvchilar, yirik qushlardan nandu tuyaqushi yashaydi.

B) O'rmon-dasht va dasht zonalarining kashtan va qora tuproqlarida chalov, betaga, bizon o'ti eng ko'p uchraydi. Zonalarning shimoliy va sharqiy qismlarida qalin o'tlarning bo'yi 1,5 metrga yetadi.

C) Keng bargli o'rmonlar zonasi ham materikning faqat g'arbiy va sharqiy qismlarida mavjud. Keng bargli o'rmonlarning tagida, asosan, qo'ng'ir o'rmon tuproqlari tarqalgan. O'simliklarning ko'p yarusligi keng bargli o'rmonlar uchun xosdir.

D) Fasliy nam doimiy yashil o'rmonlar materikning shimoli-sharqiy sohillarini egallaydi. Daraxtlardan palma, lavr, daraxtsimon paprotniklar, evkaliptlar ko'p uchraydi.

11. Dengiz sathidan 353 metr balandlikda joylashgan shaharni toping.

- A) Ostona

- B) G'ulja
- C) Navoiy
- D) Xo'jand

12. Matni o'qing.

“Uzunligi 115 km bo'lib, Hisor tizmasidagi Botirboy va Seversev muzligidan boshlanuvchi Botirboy bilan Xonaqasuv irmog'ining qo'shilishidan vujudga keladi. U qor-muzliklarning erishidan to'yinadi”.

Matndagi ma'lumotlar qaysi daryoga tegishli ekanligini toping.

- A) Yakkabog'daryo
- B) Oqsuv
- C) Tanxozdaryo
- D) Qoratog'

13. Qizilqum, Markaziy Farg'ona va Mirzacho'ldagi qumli tekisliklarda qanday tuproqlar tarqalgan?

- A) o'tloq-botqoq
- B) sur-qo'ng'ir
- C) qumli cho'l
- D) taqir va bo'z

14. “Okrugning tekislikdan iborat ekanligi va janubida tog' tizmalarining mavjudligi natijasida iqlimi o'ziga xosdir. Qishda Arktika va Sibir sovuq havo massalari bema'lol to'siqsiz tekislikka kirib keladi. Bu sovuq havo massalari okrug janubidagi tog'lardan o'ta olmay, tekislik qismida to'planadi. Natijada, qishda havo harorati pasayib, yanvarda o'rtacha harorat $-1 - 3^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, ayrim kunlarda havo harorati $-30 - 35^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi. Aksincha, yozda termik depressiya ta'sirida bo'ladi va havo quruq, jazirama issiq bo'lib, iyulning o'rtacha harorati $+26 + 28^{\circ}\text{C}$ bo'ladi, ba'zida harorat $+44 + 45^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilishi kuzatiladi”. Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Chirchiq-Ohangaron
- B) Mirzacho'l
- C) Farg'ona
- D) O'rta Zarafshon

15. Surxondaryo tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

A) Okrugda yog'inlar notekis taqsimlangan. Okrugning janubidagi tekisliklarga eng kam yog'in (yiliga 133—230 mm) tushadi. Lekin tog' yonbag'irlari bo'ylab ko'tarilgach, yog'in miqdori ortib, 500—600 mm ga yetadi. Yillik yog'inning ko'p qismi qishda (46—48 foiz) va

bahorda (43—44 foiz) yog'adi. Kuz oylariga yillik yog'inning 8—10 foizi, yozga esa atigi 1—2 foizi to'g'ri keladi.

B) Okrugda sovuq bo'lmaydigan davr 204—214 kun davom etib, vegetatsiya davridagi haroratlar yog'indisi 5000°C ga yetadi. Bunday iqlimiy sharoitda ingichka tolali paxta, shirin-shakar mevalar, poliz ekinlarini yetishtirish mumkin. Okrugda yog'inlar hudud va fasllar bo'yicha notekis taqsimlangan.

C) Okrug tekislik qismining atroflaridagi nisbatan baland joylarda och bo'z tuproq keng tarqalgan. Adirlarda esa oddiy va to'q bo'z tuproqlar uchraydi. Bu tuproq turlari 1200 m gacha bo'lgan baland joylarda tarqalgan. Ular tarkibida chirindi miqdori 1,5—2,5 foizga boradi. 1200—2500 m balandliklarda tog'-jigarrang va tog'-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan.

D) Okrug iqlimi O'zbekiston tekislik qismidagiga o'xshash bo'lib, qishi sovuq, yozi issiq va quruq, yog'in kam. Okrug janubda joylashganligidan hamda shimol, shimoli sharqdan tog'lar bilan o'ralganligidan qishda havo haddan tashqari sovib ketmaydi.

Yanvarning o'rtacha harorati $-0,9 - 1,9^{\circ}\text{C}$.

Ba'zan Arktika havosi kirib kelganda eng past harorat $-24 - 35^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi.

16. Tabiiy gazdan azotli o'g'it va kimyoviy tola ishlab chiqaradigan zavodlar qaysi shaharlarda barpo etilgan?

- A) Chirchiq, Qo'qon
- B) Samarqand, Olmaliq
- C) Farg'ona, Navoiy
- D) Andijon, Buxoro

17. “Rayon aholisining soni, zichligi va ishchi kuchlarining salmog'i jihatidan mamlakatimiz iqtisodiy rayonlari orasida birinchi o'rinda turadi. Aholi, asosan, tabiiy ko'payish hisobiga ko'paymoqda”. Ushbu ta'rif qaysi iqtisodiy rayonga tegishli?

- A) Farg'ona
- B) Zarafshon
- C) Toshkent
- D) Janubiy

18. Itaypu GESi qaysi davlatda joylashgan?

- A) Meksika
- B) Kanada
- C) Braziliya
- D) AQSH

19. Quyidagi qaysi davlat OPEK tashkilotiga a'zo emas?

- A) Iroq
- B) Gabon

- C) Meksika
- D) Kongo

20. AQSHdagi Markaziy tekisliklarning shimolida qaysi qishloq xo'jalik mintaqasi vujudga kelgan?

- A) shakarqamish
- B) bug'doy
- C) makkajo'xori
- D) paxta

21. Afrika qit'asidagi qaysi subregionda 16 ta davlat mavjud?

- A) Markaziy Afrika
- B) Shimoliy Afrika
- C) G'arbiy Afrika
- D) Sharqiy Afrika

22. **Matnni o'qing.**

“Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari qatoriga bug'doy, paxta, kartoshka, sabzavot, kungaboqar, tamaki kiradi. Dehqonchilik vodiylarda rivojlangan. Tog'lari serhosil yaylovlarga boy bo'lganligi tufayli respublikada chorvachilikning qo'ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik singari tarmoqlari yaxshi rivojlangan”.

Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.

- A) Qirg'iziston
- B) Turkiya
- C) Eron
- D) Tojikiston

23. **Matnni o'qing.**

“Subregion Osiyoning maydon jihatdan eng katta mintaqasi hisoblanadi. Subregionning to'g'ridan-to'g'ri okeanga chiqish imkoniyatiga ega ekanligi, qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi geografik o'rning ijobiy jihatlari hisoblangan, g'arbiy va janubiy qismlarining baland tog'liklardan iboratligi, asosiy qismi seysmik zonada joylashganligi, salbiy jihat sifatida namoyon bo'ladi”. **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) Sharqiy Osiyo
- B) Janubi-g'arbiy Osiyo
- C) Janubi-sharqiy Osiyo
- D) Janubiy Osiyo

24. Malayziya aholisiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Mamlakat aholisi hududiy jihatdan juda notekis joylashgan. Hududining 40 % ini egallagan yarimorol qismida mamlakat

aholisining 80 % i istiqomat qiladi. Ayniqsa dengizbo'yi hududlarida aholi zich darajada joylashgan. Mamlakat ichki qismidagi tog'li hududlarda aholi ancha siyrak joylashgan.

B) Aholisining yarmidan ko'prog'i shaharlarda istiqomat qiladi. Mamlakatda 10 tadan ziyod “millioner” shahar mavjud, 300 ga yaqin millat va elatlar yashaydi.

C) Jahondagi eng ko'pmillatli davlatdir.

Aholisining etnik tarkibi juda murakkab. Unda yashayotgan millat, elat va qabilalar turli til oilalariga mansub. Mamlakatning urbanizatsiya darajasi u qadar yuqori emas. Hozir mamlakat aholisining 1/3 qismi shaharlarda yashaydi.

D) Mamlakatda bir necha o'n yillar davomida aholi ko'payishini kamaytirishga qaratilgan “bir oilaga bir bola” tamoyiliga asoslangan davlat siyosati amalga oshirilgan edi. Buning ta'sirida tabiiy ko'payish, 2018-yilga kelib, 0,5 % gacha tushgan. Aholining etnik tarkibiga ko'ra, ko'pmillatli davlat hisoblanadi.

25. Tabiiy muhit nima?

A) Aholini o'rab turgan tabiiy va texnogen muhitni qamrab olgan yashash va mehnat qilish sharoiti.

B) Aholini o'rab turgan atrof-muhitning bir qismi bo'lib, inson tomonidan yaratilgan obyektlar, jism va moddalar.

C) Tabiiy jism va moddalarning nimanidir yoki kimnidir o'rab turuvchi, uning hayotiy faoliyati kehadigan tabiiy sharoit yoki tabiiy sharoitlar mujassamligi.

D) Jamiyatni o'rab turgan tabiiy sharoit; ijtimoiy ishlab chiqarishning muayyan tarixiy bosqichda tabiatning jamiyat bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan bir qismi.

26. Qachon jahonda «demografik portlash» jarayoni yuz berdi?

- A) 1960–1980-yillar
- B) 1950–1960-yillar
- C) 1960–1970-yillar
- D) 1970–1980-yillar

27. Quyidagi qaysi mintaqada xristian dinining protestant mazhabi keng tarqalgan?


- A) Janubiy Amerika
- B) Tropik Afrika
- C) Shimoliy Yevropa
- D) G'arbiy Yevropa

28. Ko'lbo'yi megalopolisi qaysi davlatda joylashgan?

- A) Yaponiya
- B) Kanada
- C) Xitoy


D) AQSH

29. Ushbu yozuvsiz xaritada 2 raqami bilan qaysi dengiz nomi keltirilgan?



- A) Ueddell
- B) Hamdo'stlik
- C) Bellingsgauzen
- D) Ross

30. Ushbu xaritada Afrikaning subtropik va subekvatorial iqlim mintaqalari egallagan hududlar qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 1, 5
- B) 2, 4
- C) 2, 3
- D) 1, 3

31. O'rta Osiyoning yozuvsiz xaritasida 1 va 2 raqamlar bilan qaysi daryolar tasvirlangan?



- A) Sirdaryo va Panj
- B) Surxondaryo va Vaxsh
- C) Zarafshon va Panj
- D) Qashqadaryo va Kofarnihon

32. Ushbu yozuvsiz xaritada Tasquduq qumlari qaysi raqam bilan tasvirlangan?



- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

33. Quyidagi jadvalda eralarga tegishli davrlarni o'zaro muvofiqlikda belgilang.

№	Eralar	Variantlar	Asosiy o'zgarishlar
1	Mezozoy	a	trias

2	Paleozoy	b	paleogen
3	Kaynozoy	c	perm

- A) 1-c, 2-b, 3-a
 B) 1-a, 2-b, 3-c
 C) 1-a, 2-c, 3-b
 D) 1-c, 2-a, 3-b

34. Quyidagi shaharlar va ularning dengiz sathidan balandligi mos ravishda to'g'ri berilgan javobni belgilang.

N _o	Shaharlar	T/r	Balandligi, m
1	Mashhad	a	944
2	G'ulja	b	825
3	Dushanbe	c	670


- A) 1-a, 2-c, 3-b
 B) 1-c, 2-b, 3-a
 C) 1-a, 2-b, 3-c
 D) 1-c, 2-a, 3-b

35. Osiyo subregionlari jadvalida Janubi-sharqiy Osiyo subregioniga kiruvchi davlatlar noto'g'ri berilgan qatorlarni toping.

N _o	Davlatlar
1	Myanma
2	Butan
3	Sharqiy Timor
4	Shri-Lanka
5	Tailand
6	Maldiv orollari

- A) 1, 3, 5
 B) 2, 4, 6
 C) 1, 3, 6
 D) 2, 4, 5

36. Quyidagi chizmada gorizontallar har 300 metrda o'tkazilgan bo'lsa, B nuqtaning mutlaq balandligini toping.



- A) 1000 m
 B) 1800 m
 C) 1500 m
 D) 1200 m

37. Tokio shahrida (35° sh. k va 139° shq.u) turgan kuzatuvchi 109° shq.u da turgan

kuzatuvchidan Quyosh chiqishini necha soat oldin ko'radi?

- A) 1 soat
 B) 2 soat
 C) 3 soat
 D) 4 soat

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, yillik amplitudani aniqlang.



- A) 25 °C
 B) 32 °C
 C) 24 °C
 D) 30 °C

39. Dengiz sathida havoning me'yoriy bosimi 760 mm Hg ga teng bo'lsa, qaysi shaharda havo bosimi 702,2 mm Hg ga teng bo'ladi?

- A) Farg'ona
 B) Namangan
 C) Andijon
 D) Uchqo'rg'on

40. "Materikning baland tog'li qismini egallaydi. Bu o'lkada quruqlikdagi eng katta yer yorig'i – Buyuk Afrika yer yorig'i joylashgan. Shu sababli o'lkada tektonik ko'llar ko'p. Afrikaning eng baland nuqtasi – Kilimanjaro vulqoni (5 895 m) shu yerda joylashgan". Ushbu ta'rif Afrikaning qaysi o'lkasiga tegishli?

- A) Sharqiy Afrika
 B) Markaziy Afrika

- C) Janubiy Afrika
D) Shimoliy Afrika

41. Quyidagi diagrammalarda berilgan ko'rsatkichlar qaysi viloyatga mos keladi?



- A) Buxoro
B) Surxondaryo
C) Qashqadaryo
D) Jizzax

42. "Ushbu davlatda bir necha o'n yillar davomida (2016-yilgacha) aholi ko'payishini kamaytirishga qaratilgan "bir oilaga bir bola" tamoyiliga asoslangan davlat siyosati amalga oshirilgan edi. Buning ta'sirida tabiiy ko'payish, 2018-yilga kelib, 0,5 % gacha tushgan, lekin

shunda ham aholisi yiliga 7–8 mln. kishiga ko'paymoqda". Ushbu ta'rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Hindiston
B) Indoneziya
C) Xitoy
D) Yaponiya

43. Chust tumanining aholi zichligi 2017-yil holatiga ko'ra 306,8 kishi/km² ni, maydoni esa 0,93 ming km² ni tashkil qildi. 2017-yil holatiga ko'ra Chust tumani aholisi qanchani tashkil qilgan?

- A) 285,3 ming
B) 301,7 ming
C) 292,1 ming
D) 279,5 ming

44. Samarqand shahrida 2020-yil bo'yicha tabiiy ko'payish miqdori 7251 kishini, mexanik ko'payish miqdori esa –1808 kishini tashkil etsa, aholi soni umumiy holatda qanchaga ko'paygan?

- A) 5366 kishi
B) 5624 kishi
C) 9059 kishi
D) 5443 kishi

45. «Ko'chirilgan» kapitalizm mamlakatlari guruhini belgilang.

- 1) Avstraliya; 2) Singapur; 3) Yangi Zelandiya; 4) Koreya Respublikasi; 5) JAR; 6) Tayvan; 7) Isroil; 8) Qatar.

- A) 1, 4, 6, 7
B) 2, 3, 5, 8
C) 1, 3, 5, 7
D) 2, 4, 6, 8